

TASAVVUF TA'LIMOTI VA G`ARB ADABIYOTI

Umurova Nigina Raximovna

BuxDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq g'oyalari, ta'limotlarining G'arb adabiyoti vakillariga va ular yozgan asarlarga ta'siri xususida fikr yuritiladi. Yevropa ijodkorlari tafakkuriga didaktik sharqona motivlar ilhom berganligi, g'arb-u sharq adabiy sintezining asarlarda aks ettirilgani haqidagi qarashlar muhokama qilinadi. Umuminsoniy g'oyalar, sharqqa oid ta'limotlarning mohiyati va g'arb adabiyotiga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Annotations. This article discusses the impact of Eastern ideas and teachings on representatives of Western literature and the works they wrote. It is discussed that didactic oriental motifs inspired the thinking of European artists, and that Western-Eastern literary synthesis is reflected in the works. Information is provided about universal ideas, the essence of Eastern teachings and their influence on Western literature.

Kalit so'zlar. Sharq adabiyoti, G'arb adabiyoti, motiv, san'at, madaniyat, tasavvuf, tariqat.

Keywords. Eastern literature, Western literature, motif, art, culture, mysticism.

“Hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib qolgan, o'z holicha yashagan emas, aks holda hech qanday taraqqiyot bo'lmagan bo'lar edi”-, deydi olima Fozila Sulaymonova “Sharq va G'arb” asarlarida.²⁰ Darhaqiqat, sharq va g'arb nafaqat adabiy, balki madaniy, ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy aloqalar dunyo tamaddunida tadrijiy taraqqiyotni bosib o'tdi. Ilk davrlardan oq sharq falsafasi g'arb madaniyati, falsafiy dunyoqarashiga, ilm-fanga ta'sir etgan. Farg'oniy, Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd asarlari tarjima qilingan va tadqiq etilgan, darslik sifatida o'rganilgan. Yevropalik olimlar bir qancha tadqiqotlarida bu haqiqatni isbotlashgan. Samarqanddan Toledogacha madaniy taraqqiyot yo'li vujudga keldi. Fransuz olimi Gyuning ta'kidlashicha, Yevropada 12-13-asrlarda sharq olimlari asarlari tarjima qilingan va ilm ahliga yoyilgan, buning natijasida Yevropa universitetlarida sharq tillari kafedralari tashkil etiladi. Musulmon sharqi 8-11-asrlarda g'arbdan oldinda edi. Chunki g'arb olimlari musulmon olimlari va tabiblaridan saboq olishgan, sharqdagi moddiy va ma'naviy har qanday narsa ularni qiziqtirgan. Ilm-fan ta'siri xususida yuqorida fikrlarimizni bayon etdik. Endi Islom dini va tasavvuf ta'limotining ta'siri va aynan shu ruhda yozilgan asarlar haqida fikrlashamiz.

Ma'lumki, Islom dini 7-asrda arablar zaminida shakllangan eng haq din sanaladi. Faqat haqiqatga yo'g'rilgan bu sof dinning asoschisi sifatida payg'ambar Muhammad SAVni bilamiz. Olloh kalomi Qur'oni Karim va payg'ambarimiz amallari va aytgan so'zlari bitilgan kitob bu Hadisi Sharifdir. Islom dinning dunyo bo'ylab yoyilishi juda ko'p asrlarni va murakkab davrlarni tashkil etadiki, bunga tarix guvoh. Dastlab, sharq aro, Markaziy Osiyo

²⁰Сулаймонова Ф. Шарқ ва Гарб. Т.: Ўзбекистон, 1997, 10 б.

hududida tarqalgan Islom dini Yeropaga 8-asrda kirib keldi. Ilk fath etilgan Yevropa davlati bu Ispaniyada tashkil etilgan amirlik edi. Bu tarixiy jarayonlar g'arbaro Islomning tarqalishida katta ahamiyat kasb etdi.

Islomona ruh, tasavvuf adabiyoti g'arb adabiyotida alohida hodisa sifatida kirib kelgan, g'arb ijodkorlarini ilhomlantirgan. So'fiyona g'azallardan, so'fiyona dunyoqarashdan ta'sirlangan adiblar asarida sharqona g'oyalar o'z aksini topgan. Shunday asarlardan biri yuqorida ta'kidlab o'tganimiz Gyotening Mag'rib va Mashriq devoni asaridir. Hofiz va Sa'diyning so'fiyona qarashlaridan, nafis va go'zal satrlaridan ta'sirlangan Gyote devonining butun mundariyasi sharqona atalgani ham fikrimiz isbotidir. Sharq tasavvuf ta'limotini bish uchun nafaqat Islom dinini, balki Rumi, Hofiz, Sa'diy, Navoiy ijodlaridan boxabar bo'lish kerak. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Gyote so'fiylik ta'limoti bilan Hammerning "Fors suxandonligi" asari bilan tanishadi. Va buni o'z she'riyatiga ohangdosh tarzda tasavvur etadi. Ma'lumki, Gyote devonining oltinchi bobi "Hikmatnoma"dir. Ushbu bobdagi ayrim she'rlar muallifning tasavvuf ta'limotidan xabardorligini aks etadi.

Taqdir imtihon etsa gung bo'l, odamzod
Foyda bermas aylamak ming dod-u faryod.

So'fiylikda sabr eng muhim fazilatlaridan biri hisoblanadi. Inson boshiga tushgan har qanday kulfatga sabr qilishi, Ollohga shukrona qilishi lozim. Chunki har qanday yaxshilik va yomonlik Xudodan. Buni so'fiy imtihon deb qabul qilishi kerak. Bundan tashqari asarda shunday tasavvufiy ruhda yozilgan to'rtlik borki, bu fikrimizga yorqin dalildir.

O'rgimchakni o'ldirib
G'oyat g'amgin bo'ldim, ajabo
Unga hayot bergan-ku Xudo
Haqli menday yashashga u ham

Bu she'r tasavvufdagi bir jumlaning eslatadi: "shariat aytadur o'ldir ilonni, tariqat aytadur og'ritma jonni". Asardan bunday misollarni ko'plab topish mumkin. Hatto Gyote adabiy aloqada muhim shakl bo'lgan tatabbu', nazira she'rlar bitgan, Hofiz g'azaliga nazira bog'lagan. Sa'diyning nafas haqidagi g'azalidan ta'sirlanib she'r yozgan. Mazkur ikki qutb tafakkurini birlashtirib turuvchi devonda Hofiz, Sa'diy, Rumi, Navoiy, Jomiy kabi mutasavvuf mumtoz shoirlarimizning so'fiyona qarashlarini va Payg'ambarimiz Muhammad SAV haqlaridagi baytlardan bahramand bo'lishimiz mumkin.

Ta'kidlab o'tganimizdek, islom dini va tasavvuf ta'limotining g'arb adabiyotiga ta'siri beqiyos bo'lgan. Tasavvuf ta'limoti Islom dini zaminida vujudga kelgan, nafsni tarbiyalovchi, ruhni poklovchi, komillikka eltuvchi ta'limot sanaladi. 8-asrda Iroqda paydo bo'lgan tasavvuf asrlar osha o'z tamoyillariga ega bo'ldi, turli tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Tasavvufning mohiyati insoniy kamolot va Ollohga yetishishdir. Sharq tasavvufi xususida fikrlashishdan avval g'arbda ham shunga o'xshash ta'limot bo'lganmi degan savolga javob izlasak, masalaning mohiyatiga yanada chuqurroq yetamiz.

Mashhur turk mutasavvufi Usmon Turar o'zining qimmatli "Tasavvuf tarixi" kitobida g'arbda tasavvufdan farqli ravishda mistitsizm oqimi bo'lganligini ta'kidlaydi va Sharq tasavvufidan farqlanib turuvchi bir qancha unsurlarni sanab o'tadi. Ko'plab g'arb



ijodkorlari aksariyat asarlarida G`arb mistitsizmi emas, aynan Sharq tasavvufi ta`limotini ilgari surganliklarini aynan Usmon Turar sanab o`tgan farqlardan ham bilish mumkin. Mistika tushunchasining eng asosiy xususiyati bu sirlilikdir. Mistitsizmning istilohiy ma`nosi ham lotincha – “yashirin” demakdir. Unga ko`ra haqiqatga mistik yo`l orqali erishiladi, asosiy g`oyasi – haqiqatni topish, Allohga erishish va ma`nan qoniqish. Bu maqsadga erishish uchun har bir jamiyat o`ziga xos tamoyillarni ishlab chiqqan. Asrlar o`tib, bu maktab tarzida shakllangan. Sharqda hinduizm, buddizm, G`arbda Orflus va Plotiniuslar²¹ qarashlari shular jumlasidandir.

Dunyoda turli diniy konsepsiyalar, falsafiy ta`limotlar vujudga kelgan, maqsad bir bo`lsa-da, yo`l turlicha. Xususan, Sharq tasavvufi ham G`arb mistitsizmidan farq qiladi.

Mistitsizmida harakatsizlik va usulsizlik ustuvor, unda insonning ibtidosi va intihosi ma`lum emas, ya`ni insonning qayerdan kelib, qayerga yetib borishi mavhum. Tasavvufda boshlanish va kamol topishga erishish va bu yo`lda qo`llaniluvchi yo`l – tariqat muhim ahamiyatga ega. Mistitsizmida harakatga ehtiyoj yo`q, bundan tashqari Shayxga bog`lanish kuzatilmaydi, murid-murshid munosabatlari deyarli yo`q. Mistitsizmida murshidlar silsilasi yo`q. Tasavvufda silsila muhim unsurlardan sanaladi. Mistitsizmida murshid bo`lmagani uchun duolar, zikrlar ham yo`q. Tasavvufni esa duo va zikrlarsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Tasavvufda martaba, maqom tushunchalari mavjud bo`lib, solik shayx (pir) yordami ila, shuning barobarida riyozat ila kamol topadi. Mistiklarning oliy maqsadi – Jannatdir. Tasavvufda esa oily maqsad Haqqa vosil bo`lish, birlashishdir.

Ayrim jahon adabiyoti namunalarini tahlil qilish jarayonida yuqorida sanab o`tilgan tasavvufiy jihatlarning barchasi mavjudligini sezish qiyin emas. Masalan, braziliyalik ijodkor Paulo Koelo asarlarining aksariyati shunday ruhda yozilgan. “Alkimyogar”, “Iblis va Prim xonim”, “Maktub”, “Beshinchi tog`” kabilar shular jumlasidandir. Bundan tashqari ishimizning asosiy mavzu obyekti bo`lgan Lev Tolstoy dunyoqarashida Islom dini va tasavvufiy g`oyalarni sezamiz. Bu asarlardan tasavvuf bilan bog`liqo`rinlarni yoritishdan oldin qisqacha tasavvuf ta`limoti haqida ma`lumotlarni aytib o`tamiz.

Tasavvuf islom dini zaminida vujudga kelgan axloqiy, falsafiy ta`limot bo`lib, uning “vatani” Iroq, Kufa, Basradir. Tasavvuf – boshqa din va falsafalardagi ilg`or qarashlarni o`zida mujassamlashtirgan. Bu ta`limotning shakllanishi va rivojlanishida Bibi Robiya, Abu Hamid G`azzoliy, Farididdin Attor, Boyazid Bastomiy, Jaloliddin Rumiy, Xoja Ahmas Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi olim va so`fiylarning o`rni beqiyos. Tasavvufning ruhi – Islomiy ruh, deya ta`kidlaydilar ustoz Ibrohim Haqqul “Tasavvuf va she`riyat” kitoblarida. Haqiqatan, tasavvufning asosiy manbalari ham Qur`oni Karim va Hadisi Sharifdir. Tasavvufning mohiyati esa kamol topish, poklanish va Haqqa yetish. Bir so`z bilan aytganda, tasavvuf insonga o`zini o`ziga tanituvchi ilmdir. Zero, Payg`ambarimiz Muhammad S A V aytganlaridek: “Nafsini tanigan – Rabbini taniydi”. Sharq adabiyotida yaratilgan aksariyat asrlarining tub mohiyatida komil inson konsepsiyasi yotadi. Ya`ni inson dunyoga kelganidan maqsad kamolotga erishish orqali Ollohga qaytishdir. Bu yo`lda yo`lga chiqqan solik turli yo`llarni bosib o`tishi lozim. Sharqning aynan shu jihati g`arb

²¹Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Т – “Истиклол”, 1999, 18 б.



ijodkorlarini o`ziga qaratgan. Va ular bu motivlarni o`z asarlariga g`arbona an`analar bilan uyg`unlikda aks etgan.

Adabiyot hamisha ezgulikka xizmat qiladi Har bir san`at asari zulm, shafqatsizlikka qarshi yaratiladi. Bu qay usulda yoritilmasin, asarning umumiy pafosida yashirin. Xususan, jahon adabiyotining yorqin vakili, braziliyalik ijodkor Paulo Koelo asarlarida tasavvufga oid juda ko`p g`oyalar singdirilgan. Xususan, inson kamolotining bosqichlari, taqdir masalasi, sharqona rivoyatlar, oyat va hadislardan namunalar, tasavvufdagi muhim tushuncha sanalgan vahdat tushunchasi “Alkimyogar” romanida o`z badiiy ifodasini topgan. “Alkimyogar” romanini mutolaa qilish jarayonida muallifning turli diniy konsepsiyalarni uyg`unlashtira olganini, sharqona qarashlarni ramziy yo`l bilan, magik realizm uslubida badiiy jozibali tarzda ifodalaganini ko`ramiz. Asarda Qur`oniy oyatlardan foydalanilgani, Yusuf a.s, Ya`qub a.s, Hizr a.s, Iso a.s va Muhammad SAV kabi payg`ambarlar haqidagi rivoyatlarning kiritilgani roman pafosini yanada oshirgan.

“Alkimyogar”da har bir ramz, detal bejiz tanlanmagan. Anhor rivoyati borliq bir butunligining ramzi. Bundan tashqari voqealar kechuvchi makon sifatida aynan sahro tanlangani ham asarda qayta-qayta ta`kidlangan butun olam bir butundir degan g`oyaga yaqin, butun bo`laklardan tashkil topganidek, sahro ham qum zarrasidan iborat, olamdagi jamiki narsalar yagona Javharning zarralaridir degan tasavvufiy g`oya asar leytmotivini tashkil etgan. Muallifning yana ko`plab asarlarida sharqona qarashlar mavjud. Ayniqsa, uning „Iblis va Prim xonim“ romanida ham sharqona g`oyalar, tasavvufiy dunyoqarash badiiy sintezining guvohi bo`lamiz. Bundan tashqari Paulo Koeloning „Beshinchi tog“ asari Ilyos Payg`ambar haqlarida bitilgan. Bu asarda ham turli diniy konsepsiyalar, sharq va g`arb adabiy an`analari badiiy uyg`unligini ko`rishimiz mumkin. Romandagi Ilyos a.s. obrazini biz Rabg`uziyning “Qisas ar-Rabg`uziy” asaridan keltirilgan badiiy haqiqat bilan solishtirsak, Paulo Koeloning sharq rivoyatlari-yu asarlaridan boxabar ekanligiga guvoh bo`lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб.- Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1994.- 88 б.
2. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавхид асрори.- Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат хамда “ Ўзбекистон ” нашриётлари, 1999.
3. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. Т.: Маънавият, 1999
4. Конрад М. И. Запад. Восток. Москва: Главная редакция восточная литература, 1972.
5. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Гарб. Т.: Ўзбекистон, 1997
6. Файзуллох Вафо, Чақмоқ ёруғи. Тошкент: “Шарқ”, 2012. – 77 б
7. Umurova N. INTERPRETATION OF HIS IDEAS IN THE WORK OF AHMAD YASSAVIY //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. С10. – С. 45-49.
8. Raximovna U. N. TASAVVUF TA'LIMOTI VA G 'ARB ADABIYOTI //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – С. 117-119.



9. Raximovna, Umurova Nigina. "Beshinchi tog " asarida Sharq falsafasi." Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. 2023.
10. Raximovna N. U. AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA TASAVVUFIY TUSHUNCHALAR TALQINI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – T. 2. – №. 19. – C. 57-63.
11. Shuhratovna Q. M. ASQAR MAHKAM SHERIYATIDA ISHQ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – T. 3. – №. 26. – C. 68-70.